



INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA BANKLARARO RAQOBAT VA DEPOZIT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH

Bexzodjon Shermuxamedov¹

¹TDIU professori, iqtisodiyot fanlari doktori

KALIT SO‘ZLAR	ANNOTATSIYA
Banklararo raqobat, tijorat banklari, mijoz uchun kurash, depozit, kredit.	Ushbu maqolada banklararo raqobat tushunchasi tahlil qilingan bo‘lib, uning mohiyati va ahamiyati yoritilgan, mijoz uchun kurash va unga ta’sir etuvchi omillar ko‘rsatilgan. “Mikrokreditbank” ATB ga oid ochiq ma’lumotlar tahlili asosida uzoq davr ichida bank faoliyatiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan tendensiyalar sanab o‘tilgan.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА	АННОТАЦИЯ
Межбанковская конкуренция, коммерческие банки, борьба за клиента, депозит, кредит.	В данной статье проанализировано понятие межбанковской конкуренции, освещены суть и значение данного понятия, указаны факторы, влияющие на борьбу за клиентов. На основе анализа открытых данных АКБ “Микрокредитбанк” перечислены тенденции, которые могут повлиять на банковскую деятельность в течение долгого времени.
KEY WORDS	ABSTRACT
Interbank competition, commercial banks, customer struggle, deposit, credit.	This article analyzes the concept of interbank competition, highlights the essence and meaning of this concept, and identifies the factors influencing the struggle for customers. Based on the analysis of the open data of the JSCB “Mikrokreditbank”, the trends that may affect banking activities over time are listed.

Kirish. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda banklar sonining ortib borayotganligi, bank tizimiga raqamli texnologiyalarning keng joriy etilayotganligi, shuningdek, xorijiy banklar filial va bo‘linmalari sonining ortib borayotganligi, bank tizimini yanada erkinlashtirish borasidagi islohotlar ko‘lamining kengayayotganligi, banklar faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonlarining yangi bosqichga ko‘tarilayotganligi banklar o‘rtasida raqobatning yanada ortishiga sabab bo‘lmoqda. Shunga qaramasdan, mamlakatimizda davlat ulushi mavjud banklar va boshqa banklar o‘rtasidagi raqobat darajasining ma’lum darajada cheklanib qolayotganligi, moliyaviy bozorlarning kam rivojlanganligi, bank tizimida ayrim imtiyozlarning saqlanib qolayotganligi, aholining moliyaviy savodxonligining umumiy darajasi, davlat banklarida rentabellik darajasining past

darajasi, muammoli aktivlar hajmining ortib borayotganligi va boshqa omillar mamlakat bank tizimini raqobatbardoshligini ta’minlash borasidagi ishlarni izchil davom ettirish zarurligini taqozo etmoqda.

Metodologiya. Mavzuni o‘rganishda kuzatish, analiz va sintez kabi umumilmiy usullar, matematik tahlil, statistik analiz kabi matematik usullar, vaqt qatorlari tahlili, panel tahlili kabi ekonometrik usullardan unumli foydalanildi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarning Markaziy banklari, Xalqaro valyuta jamg‘armasi kabi qator moliya tashkilotlari tomonidan banklar o‘rtasidagi sog‘lom raqobatni shakllantirish va ularning faoliyatini samarali boshqarish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Mazkur tadqiqotlarda, banklar o‘rtasidagi raqobat darajasi asosan yirik banklarning aktivlari, kredit hajmi,



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/2-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

kapital va depozitlarni jalb qilish bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarning bozordagi ulushlari orqali baholashlar o‘rganilgan. Xususan, tijorat banklari o‘rtasida raqobatbardoshlikni baholashning samarali mexanizmi yaratish, elektron marketingdan oqilona foydalangan holda masofaviy bank xizmatlarini joriy etish orqali bank raqobatdoshligini baholash bilan bog‘liq masalalar dolzarbligini saqlab turibdi. Albatta, mazkur masalalar banklar o‘rtasidagi raqobatni takomillashtirish yuzasidan ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Natijalar. Banklararo raqobat sharoitida tijorat banklarining kredit operatsiyalari samaradorligini oshirish ularning jalb qilingan mablag‘larining barqarorligini ta‘minlash orqali yuzaga keladi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlash jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish ularning uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlashni taqozo etadi. O‘z navbatida, banklar resurs bazasining mustahkamligi yuridik shaxslarning depozitlari va aholi omonatlari miqdorining o‘sib borishiga, ularning miqdor va muddat jihatdan barqarorligini ta‘minlashga bog‘liq. Tijorat banklari tomonidan xo‘jalik subyektlar va aholi talablarini hisobga olgan holda depozitlarning yangi turlarini doimiy ravishda joriy qilish, jumladan, uzoq muddatli obligatsiyalar va depozit sertifikatlarini chiqarish, subordinar qarzlarni faol jalb qilish bankning depozit siyosatini boshqarish amaliyotga bevosita bog‘liqdir.

Banklararo raqobat bozor iqtisodiyoti va umuman tovar xo‘jaligining eng muhim jihatlaridan bir hisoblanib, Raqobatning iqtisodiy mazmunini tushunib olish unga turli tomondan yondoshishini talab qiladi. Mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar (korxonalar) o‘rtasidagi raqobat tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va

yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda o‘z mavqeyini mustahkamlash uchun kurashdan iborat. Bunda ular kerakli ishlab chiqarish vositalari, xomashyo va materiallar sotib olish, ishchi kuchini yollash uchun ham kurashadi. Ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi raqobat oxir-oxibatda iste‘molchilar uchun kurashdir.

Raqobat ko‘p qirrali iqtisodiy hodisa bo‘lib, bozorning barcha subyektlari o‘rtasidagi og‘ir vaziyatlarni ifodalaydi.

Bankning moliya bozorida raqobatlashish qobiliyati bank mahsulotlari raqobatbardoshligiga va raqobat kurashi boshlanishiga ta‘sir etuvchi xo‘jalik faoliyati kompleksi bilan bog‘liq. Shu sababli bank mahsulotining raqiblar tomonidan taklif qilinadigan shunga o‘xshash mahsulotdan farqini ko‘rsatuvchi tavsif sifatida imkoniyati bo‘yicha jamiyatning aniq talablarini qondirishini ham, ushbu mahsulot tannarxini ham ko‘rsatuvchi raqobatbardoshlikning boshqa mavjud yondashuvlari haqida ham aytib o‘tish kerak.

Bankning raqobat bozorida o‘rnini saqlashda uning ishonchliligi va samaradorligini baholashda quyidagi miqdoriy ko‘rsatkichlar eng muhim hisoblanadi: bankning foydasi va rentabelligi, ustav fondi va rezervlarining miqdori, aktivlari va passivlarining tuzilmasi, kreditlar va depozitlar bozorida ulushi, hal qilingan operatsiyalar soni, foiz stavkalari darajasi va boshqalar.

Shu kabi ko‘rsatkichlar uning raqobatbardoshlik darajasini va reytingda tutgan o‘rnini belgilash uchun qo‘llaniladi.

Joriy sharoitda raqobatbardosh, zamonaviy va samarali bo‘lishga intiluvchi har qanday bank mijozlarga yo‘naltirilgan bo‘lishi, ya‘ni mijoz bank bilan o‘zaro harakatining har bir bosqichida o‘z talablarining qo‘llab-quvvatlashishiga erishish va mijozlarni jalb qilishi, ularni ushlab qolish va rivojlantirish masalalarini yuqori darajada hal qila oladigan bo‘lishi lozim.

Iqtisodiy adabiyotlarda raqobat muammolariga bag‘ishlangan tavsif bo‘yicha 3 xil qarash mavjud. Birinchisi, raqobatni bozordagi bellashuv ko‘rinishida tavsiflaydi. Ikkinchi qarash esa klassik iqtisodiyot nazariyasiga xos bo‘lib, talab va taklifni teng holatda ushlab turishga xizmat qiluvchi bozor mexanizmining elementi sifatida ko‘rib chiqadi. Uchinchi bozorni tushunish zamonaviy nazariyasiga asoslanadi va raqobatni tarmoqli bozor sifatida qabul qiladi.


F.I.Mirzayevning tadqiqot ishlarida banklararo raqobat tushunchasiga quyidagicha ta‘rif berilgan: “bank xizmatlari bozorida resurslarni jalb etish, mablag‘larni joylashtirish va boshqa barcha bank xizmat turlarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar” [1; 11]. Shuningdek, uning ilmiy izlanishlarida tijorat banklarining strategik konsepsiyasini banklararo raqobat muhitini mikro, makro, mezo va meta darajadagi strategiyalari asosida tashkil etish va respublikamiz bank xizmatlari bozorida raqobat muhitini mikrostrategiya, makrostrategiya, mezostrategiya va metastrategiya asosida davlat aralashuvini ta‘minlash orqali bosqichma-bosqich tashkil etish konsepsiyasi taklif etilgan.

F.I.Mirzayev va O.A.Ortiqovning asosiy qarashlari barqaror raqobat muhitining eng muhim shartlaridan biri hisoblangan resurslarning samarali taqsimotiga asoslanadi. I.A.Nikova, R.N.Shamgunov bu borada o‘zlarining fikrlarini bildirib o‘tishgan. Ularning fikricha, menejer oldiga yangi raqobatbardosh imkoniyatlarni yaratish vazifasi qo‘yilganda, ular qoida sifatida ishni o‘z tashkiloti holatini raqobatchi korxonalar holati bilan taqqoslashdan boshlaydi va xuddi shunday faoliyat, lekin ularga nisbatan yaxshiroq faoliyat olib borishadi. Natijada tashkilot faoliyati me‘yorlar va raqobatchilar ta‘siri ostida aniqlanadi. Barcha urinishlar mavjud bazani uzluksiz mukammallashtirishga olib keladi. Bundan

qochish uchun menejering vazifasi bo‘lib, kam ishlab chiqarish xarajatlari sharoitida tovar va xizmatlarning iste‘mol qiymatini oshirish hisoblanadi [2; 304].

Nazariy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, barcha bozor subektlarining qiyosiy xarakteristikasiga to‘liq tayanish kerak emas va raqobatli kurashni barchaning ortidan “yanada” (yanada yuqori natija, yanada yuqori foyda, tovar ishlab chiqarishning yanada yaxshi sharoitlar) deya quvgandan ko‘ra, asosiy e‘tiborni iste‘molchiga, tovar va xizmatlarning iste‘mol qiymatiga qaratish zarur.

“Raqobat – bozor iqtisodiyoti ishtirokchilarining o‘z manfaatlarini yuzaga chiqarish uchun bir-biri bilan kurashi, ularning o‘zaro bellashuvidir” [3; 223]. Iqtisodchi olimlarimizning yuqoridagi ta‘rifidan ko‘rinib turibdiki, raqobat avvalambor o‘z manfaatini yuzaga chiqarish uchun kurashdir. Banklararo raqobat ham har bir bank tomonidan tijorat banking manfaatlarini yuzaga chiqarish uchun ya‘ni yuqori daromat olish uchun kurashdan iboratdir. Banklararo raqobat mijoz uchun kurashdan iborat bo‘ladi. Qaysi tijorat bankning mijozlari ko‘p va obro‘li bo‘lsa o‘sha bankning o‘z manfaatlarini yuzaga chiqarish imkoniyatlari yuqoridir. Mijoz uchun kurash va unga ta‘sir etuvchi omillarni quyidagi 1-rasmda ko‘rishimiz mumkin




Internet ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi rasmdan ko‘rinib turibdiki, mijozlarni o‘ziga jalb etish banklar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarining turi, sifati va bahosiga, uning bank va mijoz uchun samaradorligiga, qo‘shimcha servis hamda reklamaga bog‘liqdir. Bugungi kunda tijorat bank faoliyatida banklararo raqobatning kuchayishi va uning takomillashuvi zaruriyatga aylanib bormoqda. Bank faoliyatida raqobatning bir necha turi bo‘lib, har biri tijorat bankning innovatsion ehtiyojini rivojlantirishga va yangi bank xizmatlarini kiritishda o‘z hissasini qo‘shadi. Bank

mahsulotlarining raqobatbardoshligi haqida gap ketganda, biz uning innovatsion xarakterini tushunamiz.

Banklararo raqobat sharoitida banklar tomonidan o‘z manfaatlarini yuzaga chiqarish uchun ya‘ni foyda olish uchun kurashdan iboratdir. O‘z navbatida, banklararo raqobat avvalambor mijoz uchun kurashdan iborat bo‘ladi. Qaysi bankning mijozlari ko‘p va obro‘li bo‘lsa, o‘sha bankning o‘z manfaatlarini yuzaga chiqarish imkoniyatlari yuqoridir. Mijoz uchun kurash va unga ta‘sir etuvchi omillarni quyidagi chizmada ko‘rish mumkin.



2-rasm. Mijoz uchun kurash va unga ta‘sir etuvchi omillar [4; 280]

Mazkur chizmadan ko‘rinib turibdiki, mijozlarni o‘ziga jalb etish banklar tomonidan ko‘rsatiladigan bank xizmatlarining ko‘lami, sifati va bahosiga uning bank va mijoz uchun samaradorligiga, qo‘shimcha servis hamda reklamaga bog‘liqdir.

Banklar tomonidan depozit operatsiyalarini amalga oshirish va bo‘sh turgan pul mablag‘larni jalb etish bo‘yicha hozirgi kunda raqobat kuchaymoqda, turli xil shartlar asosidagi depozit turlari oshib bormoqda. Milliy valyuta bilan bir

qatorda xorijiy valyutadagi depozitlar ham keng rivojlanmoqda.

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, “Mikrokreditbank” ATB balansi 2014–2023-yillar davomida 790 712 mlrd so‘mdan 34 994 233 mln so‘mga yoki 283,7 %ga ko‘paygan. Bank balansining oshib borishi mijozlarning depozit hisobvaraqlaridagi mablag‘larining ko‘payishi (ya‘ni, 2014-yildagi 373 873 mln so‘mdan 2018-yilda 1 060 416 mln so‘mgacha yoki 283,6 foizga oshgan), ichki va tashqi manbalardan qarz mablag‘larini jalb etish (2014-yildagi 373 783 mln



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
 “ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
 “ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/2-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

soʻmdan 2023-yilda 11 659 569 mln soʻmgasha yoki 110 barobarga oshgan) va xususiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (2014-yildagi 166 690 mln soʻmdan 2023-yildagi 1 369 879 mln soʻmgasha yoki 817,6 foizga oshgan) hisobiga yuz bergan. Tahlil etilayotgan davrda ATB “Mikrokreditbank” tomonidan mijozlarga taqdim etilgan kreditlar hajmi 2023-yil yakunida 9 893 791 mln soʻmni tashkil etgan va 2014-yildagi nisbatan 875,6 foizga koʻpaygan. Bankning joriy va uzoq muddatli likvidlilik pozitsiyasini taʼminlash ushun zarur

boʻlgan naqd aktivlar hajmi 2019-yil 1-yanvar holatiga 282 249 mlrd soʻmga teng boʻlgan boʻlsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga 785 054 mlrd soʻmga teng boʻlgan.

ATB “Mikrokreditbank” balansida yuz bergan oʻzgarishlarni aniqlash uchun bir qator nisbiy koʻrsatkichlar hisoblab shiqildi. Mazkur nisbiy koʻrsatkichlarning birinchi guruhi bevosita resurs bazasidagi oʻzgarishlarni ifodalasa, ikkinchi guruhi ichki va tashqi kredit defolti risklari darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

ATB “Mikrokreditbank” balans koʻrsatkichlari dinamikasi, (mln soʻm va foizda)

Koʻrsatkichlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
<i>Bank balansi</i>	790 712	1 116 326	1 333 645	1 807 253	2 942 920	3 475 658	5 846 959	7 875 906	9 804 854
<i>Mijozlarning mablagʻlari (depozitlar)</i>	373 783	693 379	930 186	971 354	1 060 416	3 935 790	5 989 557	9 998 596	11 659 569
<i>Chiqarilgan qarz qimmatli qogʻozlari</i>	111 117	74 986	64 289	68 010	83 087	95 954	105 806	126 804	154 056
<i>Olingan boshqa qarzarlar</i>	6 932	6 238	28 007	141 682	765 094	806 906	957 798	101 808	125 960
<i>Xususiy kapital</i>	166 690	183 387	187 880	602 397	696 121	968 875	1 045 890	1 195 895	1 369 879
<i>Berilgan kreditlar</i>	637 192	801 220	1 004 856	1 197 689	2 393 587	3 451 202	5 804 065	7 048 541	9 893 791
<i>Naqd aktivlar</i>	93 110	233 373	236 938	372 664	282 249	333 801	405 781	608 845	785 054
<i>Depozitlarning bank balansidagi salmogʻi</i>	47,3	62,1	69,7	53,7	36,1	56,3	38,1	63,7	76,1
<i>Chiqarilgan qarz qimmatli qogʻozlarining bank balansidagi salmogʻi</i>	14,1	6,7	4,8	3,7	2,8	8,9	5,8	5,9	8,2
<i>Olingan qarzlarning bank balansidagi salmogʻi</i>	0,9	0,6	2,1	7,8	25,9	26,7	28,5	28,9	29,8
<i>Xususiy kapitalning bank balansidagi s-gʻi</i>	21,1	16,4	14,1	33,3	23,6	24,5	25,8	27,8	30,7



<i>Depozitlarning kreditlarga nisbati</i>	56,6	86,5	92,6	81,1	44,3	54,5	62,7	76,1	77,3
<i>Qarz mablag‘larining kreditlarga nisbati</i>	1,1	0,8	2,8	11,8	31,9	22,8	18,7	13,9	33,8
<i>Xususiy kapitalning kreditlarga nisbati</i>	26,2	22,9	18,7	50,3	29,1	31,8	42,8	51,5	61,6
<i>Qarz mablag‘larining xususiy kapitalga nisbati</i>	4,2	3,4	14,9	23,5	109,9	115,6	121,7	132,6	142,9

Birinchi guruh ko‘rsatkichlari jumlasiga kiruvchi depozitlarning bank balansidagi salmog‘i koeffitsienti tahlil etilgan davrda kamayib borish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, mazkur koeffitsient 2018-yilda 36,1 % ga teng bo‘lib, 2017-yildagiga nisbatan 17,6 % punktga, 2016-yildagiga nisbatan 33,6

% punktga, 2015-yildagiga nisbatan 26,0 % punktga kamaygan. Ushbu davrda ichki va tashqi manbalardan jalb etilgan qarz mablag‘larning bank balansidagi salmog‘i 2019-yil 1-yanvar holatiga 25,9 %ni tashkil etib, 2014-yilga nisbatan 25,0 % punktga, 2015-yildagiga nisbatan 23,3 % punktga, 2016-yildga nisbatan 23,8 % punktga va 2017 yilga nisbatan 18,1 % punktga ko‘paygan. Xususiy kapitalning bank balansini shakllantirishdagi salmog‘i 2018-yil yakunida 23,6 % bo‘lib, tahlil etilgan davrda ko‘payish va kamayish tendensiyasiga ega bo‘lgan.

Ikkinchi guruh ko‘rsatkichlari ATB “Mikrokreditbank” balansida kredit risklari konsratsiyasi katta ekanligidan dalolat beradi. Xususan, mijozlarga ajratilgan kreditlarning jalb etilgan depozitlar bilan qoplanish darajasi 2018-yil yakunida 44,3 %ga (2017-yilda 81,1 %, 2016-yilda 92,6 %) kamaygan bo‘lsa, olingan qarz mablag‘lari hisobiga ajratilgan kreditlar salmog‘i 2015-yildagi 1,1 %dan 2018-yilda 31,9 %gacha oshib borgan.

Olingan qarzlarning bank kapitaliga nisbati 2015-yildagi 4,2 %dan 2018-yilda 7,8 %da 2023-yilda 29,8 %gacha ko‘tarilgan.

Xulosa. Yuqoridagi ma’lumotlarga asoslanib, “Mikrokreditbank” ATB faoliyatiga uzoq muddatli davrda o‘z ta’sirini o‘tkazishi mumkin bo‘lgan quyidagi tendensiyalarni qayd etish mumkin:

birinchidan, bankning resurs bazasida jismoniy va yuridik shaxslardan jalb etilgan omonatlar salmog‘i kamayib bormoqda. Bunday vaziyat makroiqtisodiy vaziyatning salbiy ta’siri (inflyatsion jarayonlar kuchayib borishi sharoitida jismoniy va yuridik shaxslarning omonatlari milliy valyutadan xorijiy valyutaga o‘tkazilishi, aholi o‘rtasida kambag‘allik holatlarining kuzatilishi hisobiga turli manbalardan olingan daromadlarni joriy hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun naqdlashtirish holatlari kuchayib borishi va boshqalar), ichki va tashqi manbalardan taklif etilayotgan resurslar qiymatining omonatlar bo‘yicha belgilanayotgan foiz stavkalariga nisbatan arzonligi va boshqa omillar ta’siri bilan izohlanishi mumkin;

ikkinchidan, ichki va tashqi manbalardan jalb etilgan qarz mablag‘lari hajmining kattaligi makro va mikro darajagi iqtisodiy holatning yomonlashuvi sharoitida bankning joriy likvidlikni yo‘qotish ko‘rinishidagi defolt darajasini oshirib yuboradi;



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/2-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

uchinchidan, bank tomonidan ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan depozit siyosati yuzaga kelgan vaziyatni yaxshilashga emas, balki mavjud holatni saqlab qolishga yo'naltirilganligi, shuningdek, unda innovatsion xizmatlar paketining mavjud emasligi depozit operatsiyalarining bank balansidagi salmog'ini pasaytirib yuborishi ehtimoli katta;

to'rtinchidan, depozit siyosatini amalga oshirishda resurs bazasini omonatlar hajmini oshirish orqali diversifikatsiyalash

imkoniyatlarining to'liq ko'rib chiqilmaganligi (ya'ni, depozit, kredit, likvidlilikni ta'minlash va boshqa siyosatlar o'rtasida uzviy aloqadorlik yo'qligi) mavjud vaziyatni yomonlashtiruvchi omil, deb hisoblanishi mumkin;

beshinchidan, resurs bazasini shakllantirishda qarz qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish amaliyotining sustligi depozit siyosatining samaradorligini pasaytirib yuborishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзаев Ф.И. Ўзбекистонда банкларaro рақобатни шакллантиришнинг концептуал асослари. Иқтисод фанлари доктори диссертацияси автореферати. – Т.: 2009.

2. Никова И.А., Шамгунов Р.Н. Стратегия и стоимость коммерческого банка. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2004.

3. О'Imasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2006.

4. Краливецкая Л.Н. Банковское дело: кредитная деятельность коммерческих банков: учеб. пос. – М.: КНОРУС, 2008.